Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	

Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	1091
Adizova Nigora Baxtiyorovna	
Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida)	1096
Almuratova Gulbaxor Mansur qizi	
Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli	1100
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili	1106
Axadova Mahliyo Xalimovna	
Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..	1109
Bakhtiyor Suvonkulov	
Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati	1113
Daminova Shoxista Farxodovna	
Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir	1117
Dilmurod Alimov	
Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari	1121
Ergashov Ma'murjon Mominjonovich	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1125
G. Sh. Tursunova	
6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar	1130
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	
Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish	1138
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar	1141
Isabayeva Asida Yusufjonovna	
Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....	1146
Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna	
Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....	1149
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuritdinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	
Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	1254
Axmedov Akmal Yusufovich, Muhammadjonova Zarnigor Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinflarda matematik mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi metod va vositalar	1258
Eshonqulova Shafoat Ergashevna, Eshonqulov Sherzod Ummatovich, Samandarova Shahnoza	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1262
G. Sh. Tursunova	
Professional Needs of Deputy Directors at Secondary Schools	1266
Jambilov Nurillo Xabibilloevich	
Virtual reallik texnologiyalari yordamida ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari	1269
Mamadjonova Nozima Adhamovna	
AI or Corpus: Which is Better for Teaching English Vocabulary?	1272
Munajat Sultonova	
O'quvchilarni kasbga yo'nal tirishning pedagogik asoslari	1275
Raxmatullayeva Durdona Ravshanovna	
Ingliz tilida talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (sohaviy matnlarni o'qishni o'rgatish misolida)	1278
Shahobiddinova Dilnavoz Bahodir qizi	



Muhandislik grafikasi ta'limida raqamli transformatsiya: o'quv jarayonini takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (Cad, 3D modellash, VR) roli	1281
Tadjiyeva Feruza Muxtarovna	
Raqamli ta'lim ekotizimi: AKT asosida axborot-ta'lim muhiti va virtual laboratoriyalarni joriy etish tajribasi	1286
Toshkentov Akmal Mamirovich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida chiroyli yozish texnologiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1290
Usmonova Gulnoza Abdurashid qizi	
Теория коммуникации как методологическая основа изучения трансформации языковой нормы в эпоху цифровых медиа.....	1294
Дилшодбеков Темур Дилшодбек угли	
Значение усвоения учебных материалов в процессе формирования биологических понятий у учащихся.....	1297
У. О. Шарибаева	
Specifics of Teaching Professional Terminology to Students of Economic Specialties	1301
Хамдамов Рамзбек Мадаминжонович	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	1306
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati.....	1311
Ma'murova Farangiz Ne'matovna	
Grafik organayzer tushunchasining mohiyati va uning turlari	1315
Nabijanov Yusufjon Inomiddin o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy metodik asoslari.....	1319
Xidirova Gavhar Babaqul qizi	
Pedagogik nizo va stress holatlarida o'qituvchining o'zini boshqarish malakasini shakllantirish	1322
Razzakova Dilnoza Akramovna	
Kompyuter grafikasi darslarida loyihaviy yondashuvni amalga oshirishning metodik asoslari.....	1326
Nazarova Shahnoza Shokirovna	
Kichik yoshdagi o'quvchilarda universal ta'limiy faoliyatlarni shakllantirish nazariyasi.....	1330
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
ART pedagogikaning tarixi va kelib chiqishi	1335
M. K. Abulova	
Dasturiy-didaktik ta'minot asosida talabalarining kiberpedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	1338
Bekchonova Shoira Bazarbayevna	
Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetentligini raqamli texnologiyalar vositasida rivojlantirish mexanizmi	1342
Eshmatova Go'zaloy Ziyoyidin qizi	
Mashqalali o'qitiladigan qaraqalpaq adbiyoti saba'ida qollanilgan abzalliklari	1346
Jaksimova Urziya Jumabaevna	
Forming Primary-School Teachers' Creative Pedagogical Culture Through Professional Reflection.....	1349
Komiljonova Dilyoraxon	
Professional ta'limda o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslari (fizika ta'limi misolida).....	1352
Kosimova Yanglish Baxtiyorovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ertak terapiyasidan foydalanish	1355
Mamataliyeva Mahbuba Abduvoris qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalarni ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirishning nazariy-pedagogik asoslari	1358
Nazarova Zarrina Allaberdiyevna	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari asosida pedagogik loyihalashtirish	1361
Polvonova Yulduzxon Saparboyevna	
SMART texnologiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy mahoratini shakllantirish modeli	1364
Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna	
Talabalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullari.....	1368
Rustamova Barno Abduxalilovna	



Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga chet tili o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish xususiyatlari.....	1371
Sadirova Dinara Sadikovna	
The Effectiveness of Project-Based Collaborative Learning in Improving English Speaking Skills of High School Students.....	1378
Salikhova N. I., Izzetullah Zeki	
Jadidlarning pedagogik merosi va zamonaviy ta'limda akmeologik yondashuv integratsiyasi.....	1383
Shodiyeva Nasiba Rustamovna	
Serebral falajli bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.....	1387
Shokirova Shaxnoza Dilmurodovna	
Diplomatik hujjatlar bilan ishlashning pedagogik modeli	1391
Sobirova Shahlo Jamolovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	1394
Suyarov Adham Begmuradovich	
Globalization and The Changing Role of English Teachers in Non-Native Contexts	1399
Toirova Shohida Kamolovna	
The Role of the Literary Heritage of the Timurid Era in Shaping National Identity and Spiritual Values	1402
Tokhliyeva Shafolat Rustam kizi	
Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning mavjud ilmiy-nazariy tavsiflari	1405
Toshboyeva Saida	
Talabalarining mustaqil ish loyihasini ishlash jarayonidagi ruhiy holatlari	1408
Uzaqbaeva Venera Abatbaevna, Kubeysinova Nilufar Maxmutovna	
O'qituvchilarda mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni va mexanizmlari	1412
Xursanova Zilola Mirzaxolmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish: metod va yondashuvlar	1416
Ziyayev Adxamjon	
Developing Students' Speech Skills Based on Multimodal Approach in English Teaching	1419
Bultakova Mokhinur Shuhratboy qizi	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llari	1422
G. M. Adizova	
A Comparative Study of Linguistic and Cultural Expression in Uzbek and English Literary Discourse.....	1426
Ismoilova Shakhnoza Ilkhomovna	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik va milliy ong masalalarining talqini.....	1429
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik mahoratni egallash jarayonini takomillashtirish.....	1433
Jabborova Marifat Qodiraliyevna	
Umumta'lim maktablarida ijtimoiy sheriklik asosida ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari	1436
Kumush Xamrakulova	
Ekologik bilimlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatga qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning tarixiy asoslarini o'rganishda xorijiy tajribalar.....	1440
Mirxamidova Maftunaxon Xusanboy qizi	
O'yin nomlarining lingvomadaniy ahamiyati	1444
Matmusayeva Muhayyo Azamovna	
Umumta'lim maktablarida elektroliz jarayonini o'qitish metodikasi.....	1446
O'rinova Ozodaxon O'ljayevna, Toshtemirov Asadbek	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning o'rni	1450
Oygul Ashurova Anvarjonovna	
Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar majburiyat yuklatilgan shaxslar emas.....	1453
Mo'minov Sulton Akbar o'g'li, Toshmurodova Muxabbat Nazaraliyevna	
Nogironligi bo'lgan o'smir bolalarni ota-onalari bilan hamkorlikda ijtimoiy hayotga moslashtirish samaradorligini oshirish.....	1460
Salixova Gulnoza Maxmudovna	
Talabalarining o'quv faoliyatini o'yinli texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy asoslari	1463
Umarov Nurbek Irkinovich	
Maxsus maktablarda eshitishda nuqsoni bor bolalar nutqini interfaol metodlar orqali rivojlantirish	1466
Teshaboyeva Feruza Raximovna	

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Suyarov Adham Begmuradovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti,
"Filologiya" kafedrası katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0009-0307-4260

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini aniqlash va kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos usullari yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotga tatbiq eta olish jarayonida kreativ fikrlash motivatsiyasining o'rni va ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, axborot, qobiliyat, ijodkorlik, ko'nikma, yaratuvchanlik, pedagogik texnologiya, samaradorlik, zamonaviylik.

Abstract: This article explores the methods of identifying creative thinking abilities in elementary school students and the specific approaches to developing creative thinking motivation. It also emphasizes the role and importance of creative thinking motivation in helping students acquire essential knowledge, skills, and competencies, as well as their ability to apply them effectively in real life.

Key words: creativity, information, ability, innovation, skill, competence, pedagogical technology, efficiency, modernity.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методы определения способностей творческого мышления учащихся младших классов и особенности развития мотивации творческого мышления. Подчеркивается роль и значение мотивации творческого мышления в процессе овладения учащимися необходимыми знаниями, умениями и навыками, а также в их умении применять полученные знания в повседневной жизни.

Ключевые слова: креативность, информация, способности, творчество, умения, навыки, педагогические технологии, эффективность, современность.

Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor.

Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor.

Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor.

Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatning jadal rivojlanishi, texnologik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari insonlardan yangicha fikrlash, muammolarni hal qilishning kreativ usullarini izlash hamda tez moslashish qobiliyatini talab qilmoqda. Shu bois ta'lim tizimi oldida o'quvchilarda nafaqat fundamental bilimlarni shakllantirish, balki ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish kabi dolzarb vazifa turibdi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichida kreativ tafakkurni shakllantirish o'quvchilarning kelajakdagi intellektual salohiyati va muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim davri bolalarda bilishga bo'lgan qiziqish, fikrlash jarayonlarining jadallashuvi va atrof-muhitni o'ziga xos idrok etish davri bo'lib, aynan shu bosqichda kreativ fikrlash asoslarini shakllantirish zarur. O'quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal qila olish qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilishga undash hamda yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyatlarini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biridir.

Maqsad – boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning samarali usullarini aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini asoslab berishdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ fikrlash – bu muammolarga yangicha yondashish, innovatsion g'oyalar yaratish va standart yechimlardan chetga chiqish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirish ularning mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kreativ fikrlashga ega bolalar kelajakda yanada muvaffaqiyatli, moslashuvchan va innovatsiyalarga ochiq bo'lishadi.

Boshlang'ich sinf bosqichi bolaning tafakkuri, mantiqiy va ijodiy qobiliyatlari shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu bois kreativ fikrlashning rivojlanishi quyidagi asosiy omillarga bog'liq:

- Psixologik omillar – bolalarning tasavvur qilish, muammolarni hal qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari yoshga bog'liq ravishda rivojlanadi;
- Pedagogik omillar – o'qituvchi tomonidan tanlangan metod va yondashuvlar o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;
- Ijtimoiy-muhit omillari – ota-onalar va jamiyat bolalarning mustaqil fikrlash va kreativ tafakkur qilishiga turtki berishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktab va maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. O'tgan fursatda muallimlarning nufuzini oshirish bo'yicha bir qancha huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Oxirgi uch yilda pedagoglarning ish haqi bir necha barobarga oshirilgani, uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilanib, ularga 50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lanayotgani, nafaqa yoshida ishlayotgan muallimlarga pensiyaning to'liq berilayotgani yoshlarning o'qituvchilikka bo'lgan qiziqishlarini oshirdi. Shu bilan birga, yurtimiz rahbari: "O'zbekiston sharoitida bugundan boshlab jamiyatdagi eng hurmatli inson muallimdir", – deya barchani pedagoglarni hurmat qilishga chaqirdi.

Jamiyatda muallimlarni eng hurmatli inson sifatida e'zozlash harakati boshlandi. Demakki, muallim zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklandi. Mas'uliyatni his qilish uchun o'z ustimizda tinimsiz ishlashimiz, o'qib, izlanib, dunyoqarashimizni kengaytirishimiz, ma'rifatimiz, madaniyatimiz, ta'bir joiz bo'lsa, axloqimiz bilan nafaqat o'quvchilar, balki xalqimiz mehriga sazovor bo'lishimiz kerak bo'ladi. Darhaqiqat, muallim xalqqa ma'rifat tarqatadigan ziyolidir. Jamiyatdagi o'zgarishlarni yoshlar ongiga singdirib, ularni ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan shaxs murabbiydir.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir. Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllanadi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon – o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bilish murakkab, qiyin va ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish – yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonaviy globallashuv va axborotlashuv davrida ta'limni yanada rivojlantirish va takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllarini tatbiq etmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Innovatsion ta'lim, ta'limda birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish va kreativ fikrlash eng muhim motivatsiyalardan hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy imkoniyatlarini aniqlashda, ularning kreativ fikrlash motivatsiyalarini rivojlantirishda ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri va o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishida axloqiy tarbiyaning o'rni beqiyosdir. Tarbiyaning naqadar dolzarbligini esa Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning quyidagi so'zlaridan anglab olishimiz mumkin: "Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi". Bu vazifalarning qanchalik dolzarbligi va qay tartibda amalga oshirilishi ushbu maqolada keng yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimlari tajribalarini ham o'rganish taqozo etiladi. Bu masala bevosita umuminsoniy qadriyatlar va demokratik jamiyat ustuvorligi dolzarbligi sharoitida muhimdir.



Boshlang'ich ta'lim – kelajak poydevori. Zero, poydevor mustahkam bo'lmasa, keyingi bosqich ham sifatli bo'lmaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga ilk kelgan kunlaridanoq ko'zlari chaqnab, bilim olishga tashna holatda bo'ladilar. Mana shu beg'ubor ko'zlardagi qiziqish, fanlarni o'zlashtirishga bo'lgan intilishni so'ndirib qo'ymaslik o'qituvchining va u qo'llaydigan metodlarning ahamiyati kattadir. Negaki, boshlang'ich sinf o'quvchisi ko'p narsani taqlid qilish orqali o'rganadi. O'qituvchining birinchi o'quv yilida sinf taxtasi yoki uning daftariga yozganlari asl nusxa sifatida ko'riladi, chunki o'quvchilar undan o'z daftarlariga ko'chirib oladilar. Shuning uchun o'qituvchining husnixati to'g'ri va chiroyli bo'lishi lozim. Sinf taxtasiga yozilgan yozuv esa o'quvchining daftaridagi harflarning joylashishiga mos bo'lishi kerak. Amaliyot ko'rsatishicha, agar o'qituvchi qatorning oxirigacha yozmasa, bolalar ham undan namuna olib qatorning oxirigacha yozmaydi, qog'ozni bekorga sarf etadi va so'zlarni keyingi qatorga to'g'ri ko'chirish yo'llarini o'rganmaydi. Shubhali holatda qatorni oxirigacha ko'chirmaydigan bo'lib qoladilar. Bunday holatlarning oldini olish, o'quvchilarni fanlarga yo'naltirish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishish mumkin.

Kreativlik – lotincha so'z bo'lib, “ijod” yoki “yo'q narsadan yaratish” ma'nolarini anglatadi. Kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni, yangi g'oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlik, tafakkur va noan'anaviylikni ifodalaydi. Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jihat ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyati va ijodkorlik xususiyati uning ta'lim jarayonidagi muloqoti, tafakkuri, his-tuyg'ulari va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra, “kreativ fikrlash – eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlashdir”. Darhaqiqat, har tomonlama fikrlash o'quvchilardan berilgan turli topshiriq, masala va vazifalarni bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarishda o'quvchi yechimning bir necha variantini izlaydi, so'ng ular orasidan eng maqbulini tanlaydi. O'qituvchining dars jarayoniga kreativ yondashuvi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi hamda ularni qo'llay olishlari uchun muhim omil sanaladi. O'qituvchining kreativligi darsda ikki holatni kafolatlaydi:

- past o'zlashtiruvchi va “bir xillik”dan zerikkan o'quvchilar e'tiborini dars jarayoniga jalb etish;
- o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatni aniqlash, rivojlantirish va rag'batlantirish imkoniyatini yaratish.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirishga yordam beradi. Bu ularning darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashiga, qiziqishlarini oshirishiga xizmat qiladi. O'qituvchilar zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etishi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini kafolatlaydi.

O'qish darslarini tashkil etishda va o'quvchilarning faolligi, qiziqishini oshirishda quyidagilarni hisobga olish tavsiya etiladi:

- yangi g'oyalar qabul qiling, bir xillikdan qoching, bu darsni boshlashdan tortib, o'tilgan mavzuni mustahkamlash va yangi mavzuni bayon qilishda o'z aksini topsin;
- darsni audio va videolardan foydalanib o'ting;
- darsni hayot bilan bog'lab o'ting, vaqti-vaqti bilan tabiat bag'rida o'tkazish ham yaxshi samara beradi;
- darslarda sahna ko'rinishlaridan foydalaning;
- mavzuni o'rgatishda rasmlardan foydalaning, masalan, hikoya uchun 5 ta rasm berib, o'quvchidan ularni mazmuniga qarab joylashtirishni so'rang;
- darslarda topishmoq o'yinlardan foydalaning;
- o'quvchining ijodkorligini oshirish uchun ko'rgazmalardan foydalaning;
- o'quvchining diqqatini jalb qilishda vizual vositalardan, taqdimotlardan foydalaning;
- darsni ertak yoki hikoya sifatida olib boring;
- o'quvchilarni turli xil g'oyalarga undang, guruhlar bilan ishlash metodidan foydalaning;
- toqatli, kechirimli, mehribon va mas'uliyatli bo'ling, bu o'quvchining fanni sevishi va yaxshi o'zlashtirishi uchun muhim omil hisoblanadi.



Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi – imkoniyatlardan to'g'ri, aniq va o'rinli foydalanish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish hamda shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy va nafosat tarbiyasi beriladi.

K. Rodgers (1944) kreativlikni muammolarning yangi yechimini topish va biror narsa, voqea yoki holatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlash deb tushunadi. Kreativlik bilan shaxs va intellektual xossalarni taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar Dj. Gilford tomonidan amalga oshirilgan. Kreativlik – insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirishi va rivojlantirishi bilan bog'liq. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida va muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- ko'p savollar berilishini rag'batlantirish;
- bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- bolalarga mustaqil faoliyatni tashkil etish imkonini berish;
- bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- tavakkaldan qochish;
- fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- shaxs fantaziyasi va tasavvurining qadrlanmasligi;
- boshqalarga tobe bo'lish;
- har qanday holatda faqat yutuqni o'ylash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri – o'qituvchi-o'quvchi hamkorligi ekaniga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar teng munosabat asosida ishtirok etadi. Bu jara-yonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va natijalari uchun javobgar shaxsdir. Ammo bu, ta'lim jarayoni faqat o'qituvchining hukmronligi ostida amalga oshadi, degan noto'g'ri tushunchaga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabatlari yordamida ijobiy natijaga erishishdir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmgina bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini shakllantirishga ham qaratilishi lozim.

Ulug' donishmandlardan biri: "Kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit", degan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar qisqa muddatli emas, balki bir necha yuz yillarga tatigulik o'zgarishlardir. Bu, prezidentimizning "kelajagimiz – kelajak avlodimiz haqida qayg'urish, yurtimizning barcha farzandlari mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta, baxtli bo'lish-lari kerak" degan g'oyasidan dalolat beradi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishga qiziqish kundan-kunga ortmoqda. Bunga sabab – an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ularni bilimlarni o'zlari izlab topishga, mustaqil o'rganishga, fikrlash va tahlil qilishga, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi esa bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishi uchun sharoit yaratadi hamda boshqaruvchilik va yo'naltiruvchilik funksiyalarini bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, har bir kreator va ijodkor boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o'z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur. Hozirgi kunda muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning asosiy maqsadi ham o'quvchi va yoshlarning o'ziga xos kreativ qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va



samarali tashkil etishga qaratilgan. Zamonaviy metodlar hamda o'qitish samaradorligini oshiruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy, tanqidiy, mustaqil va kreativ fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda kreativ fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to'g'ri fikrlash usullarini o'rgatadi. Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi mashqlar bolalarning so'z boyligi va tilining umumiy o'sishida katta ahamiyatga ega bo'lib, lug'at ishi va tilga oid boshqa mashg'ulotlar bilan bog'lab olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu sababli ta'lim tizimida o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun interfaol metodlar, o'quvchi markazli ta'lim, o'yin orqali o'rganish, zamonaviy texnologiyalar va o'qituvchilarning innovatsion yondashuvlarini joriy etish zarur. Bundan kelib chiqadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishga qiziqishini oshirish va ularni ta'lim jarayoniga faol jalb qilishda ta'lim tizimi, o'qituvchilar va texnologiyalar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash muhimdir. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatli ta'lim olishiga asos yaratadi. Ta'lim tizimining bu boradagi sa'y-harakatlari o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni bilim olishga yo'naltiradi va shu bilan birga ularning shaxsiy rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Ozod va obod Vatanimizning ertangi kelajagi bugungi o'quvchi yoshlarning qo'lida ekan, buni biz o'qituvchi-pedagoglar doimo yodda tutishimiz va o'z kasbimizga sidqidildan yondashishimiz kerak.

Shunday qilib, boshlang'ich sinfda kreativ fikrlashni shakllantirish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki kelajak avlodning ijodiy va innovatsion fikrlaydigan shaxs sifatida kamol topishiga ham zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktabrdagi PQ-4471-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi.
2. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 488 b.
3. Mirsagatova, N. S. (2019). Ta'lim metodlari va vositalari. Toshkent: TDP, Umumiy pedagogika kafedrasida.
4. Hozirgi ta'lim metodlarining asosiy turlari. Shuhratbek.uz. [Elektron manba] <https://shuhratbek.uz/hozirgi-ta'lim-metodlarining-turlari>
5. Dadamirzayev, G'. (2008). Pedagogik texnologiyalar bo'yicha izohli tayanch so'z va iboralar. Namangan: NamMPI.
6. Kreativ pedagogika asoslari moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. (2016). Toshkent.
7. Suyarov, A. (2023). "Innovatsion usullar – talabalarning ta'lim va kognitiv faoliyatini tashkil etishning yangi tarzi". Philosophical Issues are in the Eyes of Young Researchers, 1(1).
8. Suyarov, A. B. (2023). "Integration of Educational Process Forms". Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 2(2), 20-23.
9. Suyarov, A. B. (2025). "Современные методы в методике преподавания иностранных языков". Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali, 2(7), 217-225.
10. Begmuradovich, S. A. (2025). "Einsatz von Informationstechnologie im Fremdsprachenunterricht". Современное исследование, 1(3), 97-102.
11. Begmuradovich, S. A. (2025). "The Usage of Modern Educational Technologies in Teaching a Foreign Language in Higher Educational Institutions". Ta'lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali, 1(2), 180-184.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.